

KONSTITUTSIYA — ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Fayzullayeva Shahina Nasriddin qizi

Navoiy yuridik texnikumi o'qituvchisi.

Telefon: +998 (91) 332-62-21

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18115454>

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1992-yilgi va 2023-yilgi Konstitutsiyalarning solishtirma-huquqiy tahlili, advokatura institutining mustahkamlanishi, Miranda qoidasi konstitutsiyaviylashtirilishi, ta'lim tizimidagi fundamental o'zgarishlar hamda ushbu islohotlarning jamiyat hayotiga ta'siri chuqur tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Miranda qoidasi, jamiyat, davlat, inson huquqlari kafolatlari, shaxsiy daxlsizlik, adolatli sudlov, aybsizlik prezumpsiya, siyosiy barqarorlik, uzluksiz ta'lim, raqamlashtirish, xalqaro standartlar, innovatsion texnologiyalar.

КОНСТИТУЦИЯ — ГАРАНТИЯ СВОБОДНОЙ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. В статье представлен углубленный сравнительно-правовой анализ Конституций 1992 и 2023 годов, укрепление института адвокатуры, конституционализация правила Миранды, фундаментальные изменения в системе образования и влияние этих реформ на общественную жизнь.

Ключевые слова: правило Миранды, общество, государство, гарантии прав человека, личная неприкосновенность, справедливое судебное разбирательство, презумпция невиновности, политическая стабильность, непрерывное образование, цифровизация, международные стандарты, инновационные технологии.

CONSTITUTION — THE GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE

Annotation. This article provides an in-depth analysis of the comparative legal analysis of the Constitutions of 1992 and 2023, the strengthening of the institution of the bar, the constitutionalization of the Miranda rule, fundamental changes in the education system, and the impact of these reforms on public life.

Keywords: Miranda rule, society, state, guarantees of human rights, personal integrity, fair trial, presumption of innocence, political stability, continuing education, digitalization, international standards, innovative technologies.

Har bir xalqning tarixida uning taraqqiyot yo'lini tubdan o'zgartiruvchi, kelajak avlodlar taqdirini belgilovchi muhim bosqichlar bo'ladi. O'zbekiston uchun 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohot ana shunday tarixiy voqealardan biridir. Mustaqillikning dastlabki yillarida qabul qilingan 1992-yilgi Konstitutsiya o'z vaqtida davlat mustaqilligini mustahkamlash, siyosiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy-ijtimoiy tizimni shakllantirishda muhim huquqiy poydevor bo'ldi. Biroq global jarayonlar, inson huquqlarining zamonaviy talablari, demokratik institutlarning rivojlanishi, davlat boshqaruvidagi islohotlar mazkur konstitutsiyaviy asosning chuqur takomillashtirilishini taqozo etardi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya — bu oddiy o'zgartirishlar majmui emas. U jamiyatning yangicha tafakkurini, yangi siyosiy madaniyatni, inson qadri va farovonligiga asoslangan davlat falsafasini o'zida mujassam etgan huquqiy hujjatdir.

2023-yilgi Konstitutsiya 200 dan ortiq o'zgarishlarni o'z ichiga olgan bo'lib, uning 65 foiz matni qayta ishlab chiqildi.

Bu, o'z navbatida, Konstitutsiyaning yangidan-yangi tamoyillar asosida qayta yaratilganini anglatadi. Xususan, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlarda paradigma quyidagicha o'zgarish kasb etdi.

1992-yilgi Konstitutsiyada davlat markaziy subyekt sifatida belgilangan bo'lib, "Davlat — jamiyat — inson" modeli ustun bo'lgan. Inson huquqlari kafolatlari mavjud bo'lsa-da, ularning himoya mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan.

2023-yilgi Konstitutsiyada esa "Inson — jamiyat — davlat" tamoyili bosh tamoyil sifatida belgilandi. Davlatning asosiy vazifasi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash deb qonuniy mustahkamlab qo'yildi. Insonning qadr-qimmati davlat siyosatining markazi etib belgilandi. Bu huquqiy yondashuv demokratik jamiyatning asosiy falsafasi, ya'ni "davlat inson uchun, inson davlat uchun emas" tamoyili bilan to'la uyg'un. Shuningdek, yangi Konstitutsiyada O'zbekiston ilk bor ijtimoiy davlat deb e'lon qilindi. Bu juda katta siyosiy mas'uliyatni bildiradi.

O'z o'rnida haqli savol tug'iladi. Ijtimoiy davlat o'zi nima va u qanday bo'ladi?

Ijtimoiy davlat quyidagi muhim belgilarga ega bo'lishi lozim:

1. Aholining ehtiyojmand qatlamlari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi;
2. Ta'lim, tibbiyot, uy-joy, nafaqa va ijtimoiy xizmatlarni davlat zimmasiga oladi;
3. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq konstitutsiyaviy majburiyatlar qonunchilikda o'z ifodasini topadi.

Bundan tashqari, inson huquqlari bo'yicha fundamental o'zgarishlar ham amalga oshirildi. Xususan, eski tahrirdagi Konstitutsiyada huquqlar umumiy deklarativ shaklda berilgan va huquqni himoya qilish mexanizmlari nisbatan tor edi. Yangi Konstitutsiyaning 26-moddasida esa insonning sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida belgilandi. Shaxsning daxlsizligi, adolatli sudlov, sudga shikoyat qilish huquqlari kuchaytirildi. Shu bilan bir qatorda, aybsizlik prezumpsiyasi kengaytirildi. Noqonuniy hibs, qiynoq, ruhiy bosimlarga qonunan butunlay barham berildi va Miranda qoidasi konstitutsiyaviy darajaga ko'tarildi.

Bu o'zgarishlar fuqarolarni real himoya qiluvchi huquqiy tizimning shakllanishiga yo'l ochdi. Eski tahrirdagi Konstitutsiyada Prezident vakolatlari keng bo'lgan va hokimlarning mustaqilligi nisbatan cheklangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa Prezident vakolatlari optimallashtirildi va Parlamentning vakolatlari kengaytirildi. Ijro hokimiyati, ya'ni Vazirlar Mahkamasi yanada mustaqil institutga aylandi, shuningdek, Oliy sud kengaytirilgan vakolatlarga ega bo'ldi. Buning natijasida, demokratik muvozanatning konstitutsiyaviy modeli yaratildi.

Bundan tashqari advokatura institutining Konstitutsiyadan o'rin olishi Huquqiy rivojlangan davlat qurishda dadil qadam bo'lib xizmat qildi. 1992-yildagi Konstitutsiyada advokatura alohida institut sifatida ko'zda tutilmagan va davlatning advokatura faoliyatini himoya qilish majburiyati aniq belgilab qo'yilmagan edi. 2023-yilgi Konstitutsiyada esa "Advokatura" bo'limi alohida kiritildi. Advokatning kasbiy daxlsizligi, mustaqilligi, himoya faoliyatiga aralashish taqiqlandi va sud jarayonlarida advokatning teng huquqli ishtiroki kafolatlandi. Bu o'zgarish sud-huquq tizimida raqobatli sudlovning shakllanishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim tarixiy voqea inson huquqlarining global standartlardagi kafolatlari hisoblanadigan Miranda qoidasining O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida o'rin olganligidir.

Miranda qoidasi avval AQShda 1966-yildagi Miranda Arizona ishidan so'ng joriy etilgan bo'lib, hozir dunyoning demokratik mamlakatlarida qo'llanadi.

Eski tahrirdagi Konstitutsiyada hibsga olingan shaxsning huquqlari umumiy ko'rishda berilgan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa shaxs hibsga olinganda unga quyidagilar majburiy tarzda tushuntirilishi kerakligi belgilandi:

1. sukut saqlash huquqi;
2. o'ziga qarshi guvohlik bermaslik huquqi;
3. advokat yordamidan foydalanish huquqi;
4. yaqinlariga xabar berish huquqi.

Mazkur qoidalarning Konstitutsiyaga kiritilishi huquqni himoya qilishning xalqaro standartlarini O'zbekiston amaliyotiga tatbiq etilganidan dalolatdir.

Shuningdek, ta'lim tizimiga oid konstitutsiyaviy yangiliklar — kelajak taraqqiyotining poydevori bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim — har qanday jamiyatning intellektual qudratini belgilovchi asosiy sohadir. 2023-yilgi Konstitutsiyada ta'limning barcha bosqichlari bir-biri bilan uzviy bog'liq tizim sifatida belgilandi:

1. maktabgacha ta'lim,
2. maktab,
3. litsey/kollej,
4. oliy ta'lim,
5. magistratura, doktorantura,
6. qayta tayyorlash.

Bu davlat zimmasiga ta'limning barcha bosqichlarida sifatni oshirish majburiyatini yuklaydi. Shuningdek, Inklyuziv ta'limning konstitutsiyaviy kafolatlari ham belgilangan bo'lib, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olish huquqi alohida ta'kidlangan. Bu ularga maxsus sharoitlar, qo'shimcha imkoniyatlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash majburiyatini anglatadi.

Qolaversa, o'qituvchi-pedagoglar maqomining huquqiy mustahkamlanishi yangi Konstitutsiyada o'zining quyidagicha ifodasini topdi:

Birinchidan, pedagoglarning ijtimoiy maqomi davlat himoyasida.

Ikkinchidan, O'qituvchilarning oylik maoshini oshirish bo'yicha davlat majburiyati belgilandi.

Uchinchidan, ularning mehnatiga aralashmaslik va hurmatni ta'minlash burchi belgilandi.

Mazkur yangi qonun doirasidagi islohotlar ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyaga asosan zamonaviy ta'lim standartlari Davlat ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashtirildi. Soha mas'ullari qonuniy asosda raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha konstitutsiyaviy majburiyat oldi.

Yangi Konstitutsiya nafaqat huquqiy hujjat, balki jamiyatni yangilovchi, ma'naviy-ruhiy jihatdan yuksaltiruvchi ijtimoiy-huquqiy konsepsiyadir. Uning ta'sirchanligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, inson qadri oliy qadriyat sifatida mustahkamlangan.

Ikkinchidan, har bir fuqaro uchun adolatli sud kafolatlangan.

Uchinchidan, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar sifatining yaxshilanishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

To'rtinchidan, erkin bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik faoliyati qonuniy qo'llab-quvvatlanmoqda.

Beshinchidan, fuqarolarning siyosiy faolligi va davlat boshqaruvida ishtiroki kengaymoqda.

Bularning barchasi Konstitutsiyaning jamiyat hayotiga ta'sirining chuqurligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tahliliy fikrlardan kelib chiqib quyidagicha umumiy xulosalarni bayon qilishimiz mumkin:

O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi – bu shunchaki yangilangan matn emas, balki xalqimizning tarixiy orzulari, erkin yashashga bo'lgan intilishi va adolatga tayanib kelajak qurish irodasining huquqiy mujassamidir. Unda, eng avvalo, inson qadriga berilgan yuksak baho davlat siyosatining markaziga qo'yildi. Bu prinsip endilikda shior emas, balki davlatning aniq majburiyatlari, fuqarolarning haqiqiy huquqiy kafolatlari orqali hayotga tatbiq etilayotgan bosh tamoyilga aylandi. Agar eski Konstitutsiyada inson huquqlari umumiy ko'lamda talqin etilgan bo'lsa, yangi tahrirda ularning himoya mexanizmlari aniq belgilangan, davlatning fuqaroga xizmat qilishi esa konstitutsiyaviy vazifaga aylantirildi.

Yangi Konstitutsiyaning eng muhim yutuqlaridan biri – advokatura institutining mustaqil konstitutsiyaviy maqomga ega bo'lishidir. Bu o'zgarish amalda inson huquqlarining haqiqatda himoya qilinishining kafolati demakdir. Advokat endilikda tizimning bir bo'lagi emas, balki jamiyat nomidan adolat himoyachisi sifatida mustaqil huquqiy figuraga aylandi.

Miranda qoidasi kiritilgani esa fuqarolarning protsessual daxlsizligi, tergov bosqichida ham o'zini himoya qilish huquqiga ega bo'lishi, davlat organlari tomonidan bosim yoki majburlashning oldini olishga xizmat qiladi.

Bu – O'zbekiston huquq tizimining haqiqiy modernizatsiyasi, inson sha'ni va erkinligini yuqori qadrlash yo'lidagi dadil qadamdir.

Ta'lim tizimining konstitutsiyaviy darajada qayta ko'rib chiqilgani esa xalqimiz kelajagini mustahkamlovchi eng muhim poydevordir. Ta'limning sifatli, inklyuziv va uzluksiz bo'lishi, pedagoglarning maqomini yuksaltirish, yosh avlodning bilim va tafakkurini zamon talablari asosida shakllantirish – bularning barchasi yangi Konstitutsiyada davlatning bevosita majburiyati sifatida belgilandi. Bu esa ertangi kunning yetuk, mustaqil fikrlaydigan, huquqiy ongli avlodini tarbiyalashga xizmat qiladi. Zero, bilimli jamiyatgina erkinlikni qadrlaydi, qonunni hurmat qiladi va taraqqiyotga yetaklaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy islohotlar faqat hujjat sahifalarida qolib ketmasligi uchun jamiyatning har bir bo'g'inida mas'uliyat va huquqiy madaniyat yuksalishi zarur. Davlat organlarining ochiqqligi, sud tizimining mustaqilligi, advokatura institutining real kuchga aylanishi, ta'lim sifati ustidan qat'iy nazorat – Konstitutsiyada belgilangan maqsadlarning hayotga tatbiq etilishining asosiy shartidir. Konstitutsiya – bu bor yo'lni ko'rsatuvchi xarita, biroq manzilga yetish uchun qat'iy islohotlar, iroda va jamiyatning faol pozitsiyasi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi Konstitutsiya O'zbekistonning ertangi kunini belgilab beruvchi ulkan tarixiy voqelikdir. U inson qadrlarini yuksaltiruvchi, adolat ustuvor bo'lgan, bilim va taraqqiyotga tayanadigan jamiyat modelining huquqiy asosini yaratdi. Bu hujjat xalqimizning mustaqil fikri, o'z taqdirini o'zi belgilashga bo'lgan irodasi, farovon hayot sari intilishining yorqin ramzidir. Shu bois yangi Konstitutsiya – erkinlik, farovonlik va adolat garovi sifatida kelajak avlodlarga meros bo'lib qoladigan bebaho qadriyatdir.

Foydalanilgan veb-saytlar ro'yxati:

1. www.lex.uz.
2. www.legalcity.uz
3. www.constitution.uz.
4. www.pravacheloveka.uz.